

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

MUSIQA NAZARIYASI VA USLUBIYATI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Musiqqa bo‘limi boshlig‘i

_____ kat.o‘qit. Omonov X.

“ ___ ” _____ 2012 y.

5141000 – musiqiy ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha

bakalavr darajasini olish uchun

Musiqqa va san’at sohasi bo‘yicha yaratilgan internetdagi interaktiv
xizmatlardan foydalanish mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Egamberdiyeva Nilufar

Ilmiy rahbar: kat.o‘qit. Haydarova N.

Ishni himoyaga tavsiya etaman: _____ kat.o‘qit. Haydarova N.

BMI Musiqqa nazariyasi va uslubiyati kafedrası
yig‘ilishining qarori bilan (Qaror № __, “ ___ ” _____ 2012 y.)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

v/b H.Omonov. _____

Jizzax – 2012

Mundarija

KIRISH	3
ASOSIY QISM	
I-BOB. INTERNETDAGI INTERAKTIV XIZMAT TURLARI VA ULARNING AHAMIYATI	8
1.1. Interaktiv xizmatlar tushunchasi. Musiqa va san'at sohasi bo'yicha interaktiv o'quv kurslarining ahamiyati	8
1.2. Musiqa va san'at sohasi bo'yicha interaktiv xizmatlar uchun elektron o'quv qo'llanmalar yaratishning ahamiyati	13
1.3. Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlari ...	17
II-BOB. MUSIQA VA SAN'AT SOHASI BO'YICHA YARATILGAN INTERAKTIV XIZMATLARDAN FOYDALANISH	24
2.1. Musiqa darslarida pedagogik texnologiyani qo'llashga doir 1 soatlik dars ishlanma	24
2.2. Internetdagi musiqa va san'at sohasi bo'yicha yaratilgan interaktiv xizmatlardan foydalanish	28
2.3. Tajriba-sinov ishlarining natijalari	36
XULOSA	38
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	39

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Prezident I. Karimov tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 23 maydagi «2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, «Internet»ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 230-sonli qarori qabul qilindi¹. Qarorda iqtisodiyot tarmoqlarida, umumta'lim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, tegishli ta'lim standartlarini ishlab chiqish; respublikaning oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha yuqori malakali dasturchilar va mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish darajasini oshirish; respublika o'quv va tadqiqot muassasalari, korxonalari va tashkilotlarining xalqaro axborot tarmoqlariga, shu jumladan, "Internet"ga keng kirib borishini ta'minlash; kompyuter va axborot texnologiyalari sohasida normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 mayda «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni va uning ijrosini amalga oshirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli qarori bilan «2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi» tasdiqlandi. Dastur doirasida Internet tarmog'ining milliy segmentini rivojlantirish, aholining Internet tarmog'idan keng foydalanishini ta'minlash uchun aloqa bo'limlari, aloqa korxonalari Internet-klublarda jamoa tartibida foydalanish shoxobchalarini tashkil etish nazarda tutilgan. Shuningdek, mamlakatimizda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning uchinchi bosqich – to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar

¹ Халқ сўзи. – Тошкент, 2001 йил. – 24 май. – 101 (2663)-сон.

tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish davri ketmoqda. O‘tilgan davr mobaynida yaratilgan ma’muriy-huquqiy hujjatlar fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini yaratishga asos bo‘lib, o‘quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. O‘quv adabiyotlarining yangi avlodlarini yaratish, ularni tayyorlash bo‘yicha ilmiy-uslubiy, tashkiliy, iqtisodiy masalalarni hal etish uzluksiz ta’lim tizimida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning uchinchi bosqichida ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan bir qator tadbirlar ishlab chiqishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 23 fevraldagi «2011-2015 yillar uchun axborot-kommunikasion texnologiyalar bazasida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmat ko‘rsatishni keyinchalik sifatli rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1487-sonli qarori asosida 2015 yilgacha bo‘lgan davrda respublikamizda faoliyat yuritayotgan 11026ta, internet tarmog‘i («ZiyoNET»)ga ulangan 1639ta axborot-resurs markazlarining normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish, jihozlash, xalqaro tarmoqqa ulash, kadrlar bilan ta’minlash dasturlari tasdiqlandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini axborotlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu borada, ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, ta’limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashmoqda. Hozirda barcha ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu esa, pedagoglarning o‘z mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvni talab etadi.

Prezidentimiz yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi, barkamol avlod tarbiyasi yo‘lidagi olib borilayotgan ulkan ishlarni va hali bajarilishi lozim bo‘lgan ulkan vazifalar turganligini 2010 yil 27 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzalarida keltirilgan quyidagi fikrlardan ham bilish mumkin: “... Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali-beri davom etayotgan og‘ir bir sharoitda iqtisodiyotimizning yanada barqaror rivojlanishini ta’minlash, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash borasidagi ishlarni izchil davom

ettirishimiz zarur.

Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi biri-biridan mas'uliyatli va keng ko'lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog'liqdir"¹.

Prezidentimizning "Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan"² degan fikrlari, bu boradagi yaqqol misoldir.

Shuningdek, "Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi."³

"Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim tarbiyadan boshlanadi. Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblari tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'zimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanligini o'zimiz yaxshi anglaymiz." I.Karimov

Mustaqil mamlakatimizning yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga davlatimiz tomonidan juda katta g'amxo'rlik ko'rsatib kelinmoqda, ya'ni yosh

¹ Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008. – 176 b.

³ Shu manba.

avlodning har tomonlama kamol topishi chuqur puxta bilim olishi zarur. O'quv malakalarini egallash ma'lum kasbga ega bo'lish uchun zarur shart sharoitlar yaratib berilmoqda. Ta'lim va tarbiya ishini va uslubiyatini tinmay takomillashtirish ustida izlanish olib borilmoqda. Ta'lim sohasida ko'plab o'zgarishlar bo'lmoqda.

Ayni paytda pedagogik texnologiyani qanday amalga oshirish lozimligi to'g'risida juda ko'p maqolalar matbuot sahifalarida e'lon qilinmoqda. Ammo bunday tavsiyalarda dars davomida ko'zlangan maqsad qay darajada amalga oshiriladi, darsni yanada qiziqarli o'tish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatuvchi maslahatlar keltirilmagan. Bunday imkoniyatlar internet tarmog'ida mavjudligini inobatga olib, ular haqida quyida (bitiruv malakaviy ishida) to'xtalib o'tamiz.

Dastlab, birinchi bobda internetdagi interaktiv xizmat turlari va ularning ahamiyati; ikkinchi bobda esa musiqa va san'at sohasi bo'yicha yaratilgan interaktiv xizmatlardan foydalanish uslubiyatiga to'xtalamiz.

Interaktivlik deganda biz, faqatgina, biz o'rganayotgan fan kesimida texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o'rnatilgan muloqatni tashkil etish tushuniladi. Umuman olganda interaktivlik bu muloqat tizimini tashkil etish bilan bog'liq. Ya'ni, maqsadga ko'ra tizim elementlari orasidagi axboriy ma'lumotlar almashinuvi. Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo'llaniladi. Lekin bugungi kunda bu tushuncha boshqa sohalar kabi musiqa va badiiy san'at sohalarida ham qo'llanila boshlandi. Zero, musiqa va badiiy san'at sohalarida ham sohaga tegishli ma'lumotlarni axboriy almashinish imkoniyati mavjud.

Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko'riladigan manfaat mavjud bo'lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya'ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan deb tushuniladi.

Demak, ma'naviy jihatdan yoki musiqa va badiiy san'at bo'yicha ma'lumotlar olishda interaktivlik orqali foydalanuvchi turli manbalardan manfaat

ko‘rilsa, ya’ni ma’lumotlar ola olsa, bu musiqa va san’at sohasi bo‘yicha interaktiv xizmat ko‘rsatilgan hisoblanadi.

Ana shunday musiqa va san’at sohasi bo‘yicha kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchi interaktiv xizmatlar yaratishi va ulardan foydalanishi mumkin. Bunday muammolarni hal etishda musiqa va san’at sohasi bo‘yicha interaktiv xizmatlar tashkil etish (yaratsi) lozim.

Bitiruv malakaviy ishining ob’yekti: Internet tarmog‘idagi musiqa va san’at sohasiga oid saytlar.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti:

Internet tarmog‘idagi interaktiv xizmat turlari, musiqa va san’at sohasiga oid interaktiv xizmatlar, elektron o‘quv qo‘llanmalar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:

Musiqa va san’at sohasi bo‘yicha internet tarmog‘ida yaratilgan interaktiv xizmatlarning ahamiyatini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari:

- musiqa va san’at sohasi bo‘yicha internet tarmog‘ida yaratilgan saytlarni aniqlash;

- internet tarmog‘ida musiqa va san’at sohasi bo‘yicha ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlarni tahlil qilish va tegishli uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-uslubiy yangiligi:

- umumta’lim maktablari o‘quv jarayonida kompyuter vositalaridan foydalanish imkoniyatining va internet tarmog‘ining mavjudligi;

- musiqa va san’at sohasi bo‘yicha internet tarmog‘ida yaratilgan interaktiv xizmatlardan foydalanish – ma’lumotlar ko‘proq va kenroq olinishi, ko‘rgazmalilikning oshirilishi va dars samaradorligining oshishini ta’minlashi.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi:

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 40 sahifani tashkil etadi.

I-BOB. INTERNETDAGI INTERAKTIV XIZMAT TURLARI VA ULARNING AHAMIYATI

1.1. Interaktiv xizmatlar tushunchasi. Musiqa va san'at sohasi bo'yicha interaktiv o'quv kurslarining ahamiyati

O'qituvchining zamonaviy texnologiyalari bugungi ta'lim tizimining barcha jabhalariga keng miqyosda tatbiq etilmoqda. Bu yuqori malakali kadrlar tayyorlashning muhim shartiga aylanib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish musiqiy, badiiy ta'lim tizimida ham keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa musiqa, mumtoz musiqa, o'zbek mumtoz qo'shiqchiligi, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, san'at, san'at tarixi, tasvirga san'at o'qitish metodikasi kabi ixtisoslik fanlarini o'qitishda bu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Musiqiy ta'lim, san'at va badiiy ta'lim tizimida yangilanish jarayoni musiqa, san'at va unga daxldor fanlarni o'ziga xos usullar bilan o'qitishni taqozo etmoqda. Zero bo'lajak musiqa va badiiy san'at o'qituvchilari, u qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, o'z vazifasini talab darajasida bajarish uchun axborotga ishlov beruvchi vositalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

Shu jihatdan, bugungi kunda interaktiv xizmatlar va ulardan foydalanishga ham e'tibor qaratilmoqda. Musiqa va san'at sohasida ham interaktiv xizmat turlarini ko'rsatish va ulardan foydalanishning imkoniyatlari mavjud.

Interaktivlik tushunchasi. Interaktivlik deganda biz, faqatgina, biz o'rganayotgan fan kesimida texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o'rnatilgan muloqatni tashkil etish tushuniladi. Demak, Kompyuter dasturlari shunday yaratilganki, Biz u yordamida kompyuter bilan muloqat o'rnatamiz.

Umuman olganda interaktivlik bu muloqat tizimini tashkil etish bilan bog'liq. Ya'ni, maqsadga ko'ra tizim elementlari orasidagi axboriy ma'lumotlar almashinuvi. Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo'llaniladi. Lekin bugungi kunda bu tushuncha boshqa sohalarda kabi musiqa va badiiy san'at

sohalarida ham qo'llanila boshlandi. Zero, musiqa va badiiy san'at sohalarida ham sohaga tegishli ma'lumotlarni axboriy almashinish imkoniyati mavjud.

Interaktiv xizmatlar tushunchasi. Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko'riladigan manfaat mavjud bo'lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya'ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan deb tushuniladi.

Demak, ma'naviy jihatdan yoki musiqa va badiiy san'at bo'yicha ma'lumotlar olishda interaktivlik orqali foydalanuvchi turli manbalardan manfaat ko'rilsa, ya'ni ma'lumotlar ola olsa, bu musiqa va san'at sohasi bo'yicha interaktiv xizmat ko'rsatilgan hisoblanadi.

Ana shunday musiqa va san'at sohasi bo'yicha kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchi interaktiv xizmatlar yaratishi va ulardan foydalanishi mumkin. Bunday muammolarni hal etishda musiqa va san'at sohasi bo'yicha interaktiv xizmatlar tashkil etish (yaratsi) lozim, bunda interaktiv o'quv kurslarining ahamiyati kattadir.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimiga kirib kelayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ta'lim muassasalarini axborotlashtirishga intilish, interaktiv xizmatlarni tashkil etish jarayoni ta'limda interaktiv o'quv kurslarni yaratish uchun imkoniyat ochildi.

Axborotlashtirish, albatta yangi zamonaviy o'quv vositalarini yaratishni talab qiladi. Bunga ayni paytda yaratilayotgan elektron o'quv qo'llanmalar, interaktiv xizmatlar misol bo'la oladi. Hozirgi vaqtda o'quv jarayonini va interaktiv xizmatlar tashkil etishni interaktiv o'quv kurslari yordamida olib borilishiga ehtiyoj katta.

Interaktiv o'quv kurslari — kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallari, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat matn shaklida;

- o'quv materiallar matn va ikki o'lchamli grafik shaklida;
- multimedia (multimedia — ko'p axborotli muhit) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot o'lchamli grafik ko'rinishida, ovozli, video, animatsiya va qisman matn shaklda bo'ladi.

Interaktiv o'quv kurslari — universal dasturiy ta'minot bo'lib, u muayyan kasbiy faoliyatning ish va axborot turlari yoki axborot turlarini qayta ishlashni avtomatlashtirishga imkon beradi.

Interaktiv o'quv kurslarining oddiy o'quv kurslaridan farqli jihatlari nazarimizda quyidagilardan iborat:

1. Har bir Interaktiv o'quv kurslari o'qitish jarayonining ma'lum boshlang'ich va yakuniy darajasini tavsiflaydi. Aniq bir o'quv fani bo'yicha Interaktiv o'quv kurslari murakkablikning bir necha darajasidagi materialni o'z tarkibida saqlashi mumkin. Bunda ular har bir daraja uchun interfaol tartibotda bilimlarni tekshirish uchun ko'p variantli topshiriqlarni o'z sirasiga oladi.

2. Interaktiv o'quv kurslarida ko'rgazmalilik oddiy o'quv kurslaridagidan ko'ra yuqoriroqdir. Interaktiv o'quv kurslarida ko'rgazmalilik animatsiyalar, tovush kuzatishlar, giperjo'natishlar, videolavhalar va boshqa multimediyali texnologiyalardan foydalanish bilan ham ta'minlanadi.

3. Interaktiv o'quv kurslari sinov topshiriqlari va testlarining ko'p variantlilik, ko'p darajalilik va xilma-xilligini ta'minlaydi. Interaktiv o'quv kurslari barcha topshiriq hamda ma'lumotlarni interfaol va ta'lim beruvchiga tartibli berilishga imkoniyat yaratadi. Aniq javob paytida tushuntirishlar va izohlar orqali aniq javob berishga erishish mumkin.

4. Interaktiv o'quv kurslarini yaratish va tarqatishda bosmaxona ishlari bajarilmaydi. Interaktiv o'quv kurslari ishining tuzilishi bo'yicha ochiq tizim bo'lib hisoblanadi. Ularni ishlatish jarayonida to'ldirish va takomillashtirish mumkin.

5. Interaktiv o'quv kurslarining ta'lim oluvchilar bilan yaqinlashuvi oddiy o'quv kurslardan ko'ra yuqoriroq. Interaktiv o'quv kurslariga talab oshganda, uning adadini osongina ko'paytirish va tarmoq bo'yicha o'rnatish mumkin.

Interaktiv o'quv kurslar quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'rganilayotgan materialni an'anaviy o'quv kurslariga nisbatan induktiv ashish, eshitish va emosional xotiralarga ta'sir qilish yo'llari bilan yetkazish, ali tushunishni yengillashtiradi;

- ta'lim oluvchilarning ehtiyojiga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga moslashtiriladi;

- o'quv predmetiniig mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda, ko'p sondagi ma'lumotlarni va topshiriqlarni yechib chiqish va ko'proq amaliy masalalar yechishga imkon yaratgan holda murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etadi;

- o'rganishning barcha bosqichlarida o'zini o'zi tekshirib ko'rish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi;

- ishni chiroyli, aniq rasmiylashtirishlarga va uni o'qituvchiga fayl yoki qog'ozga chop etgan holda topshirishiga imkon beradi;

- tajribali o'qituvchi vazifasini cheklanmagan tushuntirishlarni, sanoqsiz takrorlashlarni, eslatishlarni taqdim etgan holda bajaradi.

Interaktiv o'quv kurslari ixtisoslashgan o'quv xonalarida o'tkaziladigan amaliyotni mashg'ulotlar uchun quyidagi qulay imkoniyatlarni yaratadi:

- kompyuterli qo'llab-quvvatlashlardan foydalangan holda katta miqdordagi topshiriqlarni bajarishga, yechimlarni va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan vaqtdan ozod bo'ladi;

- o'qituvchining rahbarlik va maslahatchi sifatida qatnashib kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg'ulot o'tkazish imkonini yaratadi;

- o'qituvchiga kompyuter yordamida ta'lim oluvchilar bilimni tez va samarali nazoratdan o'tkazishiga imkon beradi;

- o'qituvchini uy topshiriqlari, turli hisoblashlarni va nazorat ishlarni tekshirish kabi mashaqqatli ishlardan xalos etadi;

- ta'lim oluvchilar bilan ayniqsa uy topshiriqlari va nazorat ishlari qismiga oid ishlashni individuallashtirishga imkon ochadi.

Interaktiv o'quv kurslar yoki boshqa kompyuter o'quv darsliklarini kompyuter bilan ishlashga doir psixologik aspektlarsiz yaratish mumkin emas.

Birinchidan, interaktiv o'quv kurslar yordamida o'quv amaliyoti topshirig'ini bajarishda ma'lumotning ekranda kerakli tartibda joylashishi, asosiy elementlarning rang bilan belgilanishi, foydalanuvchi uchun "qulay instrumentlar"dan foydalanishni va shu kabilarni keltirishimiz mumkin.

Ikkinchidan, o'quvchi ba'zi bir qo'lda bajariladigan operatsiyalarni turli xil xizmatchi funksiyalar yordamida bajaradi. Natijada topshiriq bajarilishi tezlashadi.

Multimediaviy interaktiv o'quv kurslari nafaqat o'qituvchi uchun kunlik foydalaniluvchi funksiyalarni bajarishni osonlashtiradi, balki fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi, o'qish jarayonini tezlashtiradi va bilimlarni yaxshi o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Demak, bunday interaktiv o'quv kurslaridan foydalanib musiqa va san'at sohasi bo'yicha interaktiv xizmatlarni tashkil etish mumkin. Bunda musiqa va san'at sohasiga oid bilimlar tizimlashtiriladi, dasturiy ta'minotlar orqali interfaol ko'rinishga keltiriladi. Musiqaga oid ma'lumotlar, rasmlar, asboblari (cholg'ular) kompyuter dasturlari yordamida interaktiv holatda namoyon bo'ladi, bularni esa interaktiv o'quv kurslari orqali tezroq yaratish mumkin.

1.2. Musiqa va san'at sohasi bo'yicha interaktiv xizmatlar uchun elektron o'quv qo'llanmalar yaratishning ahamiyati

Respublikamiz ta'lim maskanlarida o'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, zamonaviy o'qitish metodikasini yaratish, innovatsion loyixalarni shakllantirish va mos texnologiyalarni yaratish keng yo'lga qo'yilmoqda.

Axborot texnologiyalari, Internet tizimi o'qituvchi va o'quvchining tobora qudratli va beminnat yordamchisiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda o'qituvchi va o'quvchilar axborot texnologiyalari va Internetdan foydalanib, ma'lumotlar, ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ishlanmalari hamda metodik tavsiyalar bilan tanishish imkoniyatiga egadirlar.

Natijada o'quvchilarning o'quv predmetiga, fanga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Bu qiziqish Internet tizimiga murojaat etish imkoniyati cheklanishsiz mavjud bo'lganda ayniqsa kuchaymoqda. Internet tizimi imkoniyatlarining cheksizligi bu qiziqishlarni yanada kuchaytirmoqda. Bugungi kunda Internetdan foydalanishni o'zlashtirib olgan o'quvchilar nafaqat o'zlariga zarur o'quv adabiyotini tezkorlikda topish, balki masofadan turib o'quv jarayonida ishtirok etish, shuningdek, internetdagi musiqa va san'at sohasiga oid interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga egadirlar. So'z yuritilayotgan interaktiv xizmatlar masofaviy ta'limda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, mavjud ixtisoslashgan muhitlardan foydalangan o'qituvchi (va o'quvchi)lar kompyuter qarshisida turib bilim olish dinamikasining barcha, jumladan, psixologik va fiziologik jihatlarini inobatga olgan holda mos o'quv materiallarini yaratishlari (va undan foydalanishlari) lozim.

Fan va texnikaning tez sur'atlarda rivojlanishi, barcha fanlar qatori musiqa va san'at sohasi fanlari mazmuniga, xususan, ularni o'qitish metodikasiga nisbatan yangicha talablarni qo'ymoqda. Ushbu soha fanlari metodikasining asosiy maqsadlaridan biri, mazkur soha fanlarining

rivojlanishini inobatga olgan xolda, mazmunan yangilangan, zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etilgan elektron o'quv qo'llanmalarni, internetda interaktiv xizmatlarni yaratishdan iborat.

O'qituvchining zamonaviy texnologiyalari bugungi ta'lim tizimining barcha jabhalariga keng miqyosda tatbiq etilmoqda. Bu yuqori *malakali kadrlar* tayyorlashning muhim shartiga aylanib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish musiqiy, badiiy ta'lim tizimida ham keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa musiqa, mumtoz musiqa, o'zbek mumtoz qo'shiqchiligi, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, san'at, san'at tarixi, tasvirga san'at o'qitish metodikasi kabi ixtisoslik fanlarini o'qitishda bu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Musiqiy ta'limga, san'at va badiiy ta'lim tizimida yangilanish jarayoni musiqa, san'at va unga daxldor fanlarni o'ziga xos usullar bilan o'qitishni taqozo etmoqda. Zero bo'lajak musiqa va badiiy san'at o'qituvchilari, u qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, o'z vazifasini talab darajasida bajarish uchun axborotga ishlov beruvchi vositalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Shu jihatdan, bugungi kunda interaktiv xizmatlar va ulardan foydalanishga ham e'tibor qaratilmoqda. Musiqa va san'at sohasida ham interaktiv xizmat turlarini ko'rsatish va ulardan foydalanishning imkoniyatlari mavjud.

Shu ma'noda bo'lajak musiqa va badiiy san'at o'qituvchisining professional tayyorgarligi zamonaviy axborot texnologiyalarini qay darajada bilishiga ham bog'liq bo'lib qoldi. O'quvchi-yoshlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishning muhim subyektlaridan bo'lib, hayotda ro'y berayotgan rivojlanish va o'zgarishlarga ijobiy ta'sir o'tkazadilar va ijtimoiy taraqqiyotni harakatga keltirishda muhim rol o'ynaydilar. Shuning uchun ham yurtimiz kelajagi bugungi o'quvchi, ertangi mutaxassislarining axborot texnologiyalaridan qay darajada foydalanishlariga bog'liq. Fan-texnika taraqqiy etishi hamda bu taraqqiyot natijalarining o'quvchi-yoshlar hayotiga juda qisqa muddatlarda keng kirib kelayotganligi bu oqimni muntazam nazorat qilish hamda uni foydali manbalar bilan band etish choralarini ko'rish kerak. O'quvchilarning izlanuvchanligi, ijodkorligi, oz vaqt, kam kuch sarflab yuqori natijalarni

ta'minlashda, shuningdek, talabalarning ijodiy faoliyati samaradorligini oshirishda yangi pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib faollashtirishi muhim omil hisoblanadi. Musiqa va san'at sohasiga oid elektron manbalar bu borada muhim manba sifatida va interaktiv xizmatlar uchun e'tiborlidir.

Musiqiy va badiiy ta'lim tizimini yangi axborot texnologiyalari hamda kompyuterlashtirishning muhim jabhalaridan biri ta'lim tizimida qo'llash uchun qulay, ayni paytda Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga mos elektron vositalar majmuasini yaratishdan iborat. Bu o'rinda musiqa va badiiy ta'lim tizimi bo'yicha interaktiv xizmatlar uchun elektron o'quv adabiyotlar, shu bilan birga, master klass axborot texnologiyalari alohida o'rin tutadi. Masalan, axborot texnologiyasiga "Art Rage 2,5" dasturini o'rnatib, tasviriy san'at faniga oid bo'lgan qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, tasviriy san'at o'qitish metodikasi kabi fanlardan hajmi jihatidan uncha katta bo'lmagan tasviriy san'atga tegashli bo'lgan xom ashyolar, ish qurollari, har xil teksturadagi qog'oz, matolarda vazifalarni bajarish mumkin.

Internet tizimida musiqa va san'at sohasiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni qidiruv tizimlari bo'lgan, Google, Yandex, Yahoo sahifalarini ochib, musiqa va san'at sohasi fanlariga tegishli bo'lgan vazifalarini yozish, ko'rish, ko'chirib olish va kerakli xulosalarni chiqarish mumkin.

Hozirgi kunda respublikamizda va xorijda turli predmetlarni o'rgatishga mo'ljallangan o'quv adabiyotlar, shu jumladan, multimediali elektron o'quv qo'llanmalar yaratilib va ta'lim amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Musiqiy va badiiy ta'lim tizimida fanlarni o'qitish qay darajada shakllanganligini hozirgi holatining taxlili, o'quvchi-talabalarning qiziqishi doirasi, tahsil olish sharoiti va ijodiy qobiliyatlarini o'rganish musiqiy va badiiy ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida interaktiv xizmatlar uchun multimediali elektron o'quv qo'llanmalar yaratish hamda ulardan musiqiy va badiiy ta'lim tizimida foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslarini tadqiq etish bugungi kundagi dolzarb muammolar sirasiga kirar ekan, bu borada musiqa va

san'at sohasiga oid elektron o'quv qo'llanmalar yaratishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

— xorijiy va respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimidagi musiqa va san'at sohasi fanlari uchun mavjud elektron o'quv adabiyotlarni yaratish va ularni joriy etish yo'nalishidagi ishlarni tahlil etish;

— musiqiy va badiiy ta'lim o'quv jarayonida interaktiv xizmatlar uchun multimediali elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish;

— musiqa va san'at sohasi bo'yicha internetdaga ma'lumotlarni boyitish maqsadida elektron o'quv qo'llanmalar yaratish, interaktiv xizmatlarni tashkil etish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa va san'at sohasi bo'yicha elektron o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni joriy etish musiqa va badiiy ta'lim yo'nalishidagi ta'lim sifatini oshishiga imkoniyat yaratadi. Bu sohadagi elektron o'quv adabiyotlarining internet tarmog'iga joylashtirilishi esa keng ommaning foydalanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, musiqa va san'at sohasi bo'yicha interaktiv xizmatlarni tashkil etishda electron o'quv adabiyotlar, interaktiv ishlarmalar va dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa dasturlash tizimlari yordamida o'qitishning, o'quv jarayonining sifat va samaradorligini hamda mahsuldorligini yanada oshirishga imkon beradi.

1.3. Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlari

Bunungi kunda axborot texnologiyalari va internetning rivojlanishi insonlar o'rtasida nafaqat axborot almashinishning rivojlanishiga va jamiyatning axborotlashishiga, balki ta'lim tizimi uchun ham, uning sifat va samaradorligi oshirish uchun ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Internet tizimi o'qituvchi va o'quvchining tobora qudratli va beminnat yordamchisiga aylanib bormoqda. O'qituvchi va o'quvchilar axborot texnologiyalari va Internetdan foydalanib, ma'lumotlar, ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, ishlanmalar hamda metodik tavsiyalar bilan tanishish imkoniyatiga egadirlar.

Internet orqali turli ko'rinishdagi xizmat turlari (interaktiv xizmatlar) ko'rsatilmoqda. Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko'riladigan manfaat mavjud bo'lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya'ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan deb tushuniladi.

Internet orqali musiqa va badiiy san'at bo'yicha ma'lumotlar olishda interaktivlik orqali foydalanuvchi turli manbalardan manfaat ko'rsa, ya'ni ma'lumotlar ola olsa, bunda musiqa va san'at sohasi bo'yicha interaktiv xizmat ko'rsatilgan hisoblanadi.

Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlari. Hozirgi vaqtda, Hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e'tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo'li, bu, ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi.

Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlariga quyidagilar kiradi:

Transport vositalarning harakatlanish jadvali. Respublikadagi transport vositalarini harakatlarini ifodalash jadvali bir nechta saytlarda berilgan. Foydalanuvchi saytdan o'ziga maqul transport vositalarini qatnovi jadvallari


haqidagi ma'lumotlarni topadi. Quyida ushbu veb sahifalarni keltirilgan:

<http://www.orexca.com> – sayyohlar uchun mo'ljallangan veb sahifa;

<http://www.tgpt.uz> – toshkent shahridagi transport vositalari haqidagi veb sahifa;

<http://www.goldenpages.uz/> - O'zbekiston transport qatnovi reys jadvallari sahifasi.

Avia reyslar jadvali. Avia reyslari bo'yicha ma'lumotlar jadvalini aniqlash, ulardan foydalanish uchun <http://uzairways.com> - O'zbekiston xavo yo'llari aviya kompaniya veb sahifasiga murojat qilinadi. Saytda xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi aviya qatnov jadvallari keltirilgan.



Temir yo'l transporti qatnovi jadvali. Respublika ichki va tashqi temir yo'l qatnovlari jadvallari va ular haqidagi ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan topish mumkin.

1. uzrailpass.uz - temir yo'l transport qatnovi jadvali.

2. www.roxanatour.com - Bu sayoxlik firmasi sayti bo'lib, bunda siz xalqaro va O'zbekiston ichidagi temir yo'l qatnovlari va havo yo'llari qatnovi jadvallari va u yerda joylashgan mexmonxonalar xaqida ma'lumot va buyurtmalar majmualarini aniqlashingiz mumkin.

Bank xizmati ma'lumotlari va valyuta kurslari. O'zbekistondagi barcha banklar xaqidagi ma'lumotlar va yangiliklar, kunlik valyuta miqdorlari haqidagi ma'lumotlarini quyidagi saytlardan olish mumkin:

Ish o‘rinlar birjalari. Respublika doirasida bo‘sh ish o‘rinlarini topish, aniqlash va muloqat o‘rnatish quyidagi veb sahifalar orqali amalga oshirilishi mumkin. www.myjob.uz, www.vakansi.uz bu saytlardan siz ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlarni va Siz, o‘zingiz haqingizdagi ma’lumotlarni to‘ldirib jo‘natishingiz va javob olishingiz mumkin.

Sport yangiliklari. Respublika va xalqaro sport musobaqalari, ularning o‘tkazilish jadvallari va holatlari haqidagi ma’lumotlarni quyidagi veb sahifalardan qidirish mumkin: www.uff.uz; www.the-uff.com; www.paxtakor.uz; www.bunyodkor.uz; www.fifa.com. Bu saytlardan O‘zbekiston futboli va jaxon futboli yangiliklarini olishingiz mumkin. www.allsportsites.net bu saytdan esa sport turlari reytingi yangiliklari haqidagi ma’lumot olishingiz mumkin.

Sportal.uz sport yangiliklari



Давлат бoшқарув ва xo‘jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlar.

Интерактив давлат xizmati – idoralar tomonidan idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog‘i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko‘rsatiladigan xizmatlar.

Интерактив давлат xizmati quyidagi shakllarda ko‘rsatiladi:

– umumiy foydalaniladigan axborotni e‘lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, shu jumladan Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo‘yicha xizmatlarni realizatsiya qilish;

– bir tomonlama o‘zaro hamkorlik - elektron shakldagi hujjatlarning har xil formulalaridan foydalanish imkoniyatini berish;

– ikki tomonlama axborot ayirboshlash - so‘rov bo‘yicha qabul qilish, tahlil (ko‘rib chiqish) va javob yuborishni o‘z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish va/yoki berish);

– elektron shakldagi ma’lumotlar to‘liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan xizmatlar ko‘rsatish va ularga haq to‘lash shaklida ko‘rsatilishi mumkin.

Bugungi kunda davlat organlarining veb-saytlari orqali aholiga interaktiv davlat xizmatlari asosida 384 turdagi interaktiv xizmatlar ko‘rsatiladi.


Quyidagi veb sahifalardan Davlat boshqaruv va xo‘jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlarni topish mumkin.

- O‘zbekiston Respublikasi xukumatining portali. <http://www.gov.uz>
- O‘zbekiston Respublikasi xukumatining portali. <http://www.aci.uz>



Ma’ruza matnlari yoki boshqa axborot-ta’lim resurslarini olish uchun hamda boshqa ilmiy ishlar bilan shug‘ullanish uchun ham internetda interaktiv xizmatlar mavjud. Bular quyidagilar hisoblanib, buning uchun:

- barcha ta'lim yo'nalishi yoki sohaga oid axborot-ta'lim resurslarini olish uchun www.ziynet.uz portaliga va uning **Библиотека** bo'limiga kirish;



- pedagogika sohasiga oid barcha ma'lumotlarni (DTS, o'quv va ishchi dasturlar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, darsliklar, ma'ruza matnlari, avtoreferatlar, dissertatsiyalar haqida ma'lumot) olish uchun www.pedagog.uz portaliga va uning kerakli bo'limlariga kirish;



- tayanch oliy o'quv yurti hisoblanmish Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining www.tdpu.uz saytiga kirish; tegishli fanlarni olish uchun uning **Elektron majmualar** (tegishli fakultet, kafedralar) bo'limiga kirish;

- shuningdek, www.vak.uz – Oliy attestatsiya komissiyasining saytiga; www.edu.uz – Oliy ta’lim vazirligining portaliga; www.uzedu.uz – Xalq ta’limi vazirligining portaliga kirish lozim.

<http://www.tdpu.uz/abit2012/index.php> – Abituriyentlar uchun maxsus sayt



www.jizzax.uz – Jizzax viloyati hokimligi sayti



II-BOB. MUSIQA VA SAN'AT SOHASI BO'YICHA YARATILGAN INTERAKTIV XIZMATLARDAN FOYDALANISH

2.1. Musiqa darslarida pedagogik texnologiyani qo'llashga doir 1 soatlik dars ishlanma

Mavzu: Jahon opera san'atida J.Verdi ijodining o'rni va ahamiyati

Darsning maqsadi:

a) **ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga J.Verdi hayoti va ijodi haqida tushuncha berish.

b) **tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni do'stlik, vatanga sadoqat, musiqani sevish ruhida tarbiyalash.

c) **rivojlantiruvchi maqsad:** mavzuga doir bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish.

Vazifalari:

Mavzu asosida bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, vokal-xor malakalarini shakllantirish.

NAVRO'ZIM – SHO'X SOZIM

N.Norxo'jayev musiqasi
H.Rahmat she'ri

Soli

mf Нав-рўз кел-ди, Нав-рўз кел-ди ку - либ ку - либ

Ф-но

mf

Бо - ру га - лам, бо - ру га - лам гул - га тў - либ,

Қуш - лар сай - рар жуфт-жуфт бў - либ.

42

Нав - рӯ - зим, ўз сў - зим, Шод о - во - зим,

Шод о - во - зим, шўх со - зим.

Наврӯз келди кулиб - кулиб,
 Боғу далам гулга тўлиб,
 Қушлар сайрар жуфт - жуфт
 бўлиб

Нақорат:

Наврӯзим, ўз сўзим,
 Шод овозим, шўх созим.

Наврӯзимни севар жаҳон,
 Она - диёр ҳур гулистон,
 Кундан - кунга завқли даврон.

Нақорат:

Наврӯзим, ўз сўзим,
 Шод овозим, шўх созим.

Яхши ният ҳар кўнгилда,
 Ҳуррам кунлар кезар элда,
 Такрор - такрор дилда, тилда.

Нақорат:

O‘quv jarayonini amalgam oshirish texnologiyasi.

1. Uslub: Og‘zaki bayon qilish.
2. Shakl: Suhbat – munozara.
3. Vosita: Tarqatma materiallar, rubob cholg‘u asbobi, b.b.b
4. Usul: Og‘zaki nazorat, savol-javob.
5. Nazorat: Og‘zaki nazorat
6. Rag‘batlantirish, 5 balli tizimda baholash.

Darsning tashkiliy qismi:

- a) Tashkiliy qism
- b) Davomatni aniqlash
- c) Savol-javob

O‘quv jarayonining mazmuni:

Buyuk italyan kompozitori Juzeppe Verdi 1813 yil 10-oktabrda Italiyaning kichik Busetto shaharchasi yaqinida, Ronkole qishlog‘ida o‘rta hol oilada dunyoga kelgan. Verdining bolalik chog‘lari Busetto shahri musiqachilari orasida o‘tdi. Musiqachilar unga musiqiy asarlar notalarini ko‘chirishni topshirar edi. Bu musiqachilar orasida eng ko‘zga ko‘ringani Fernando Provezi edi. U Verdining ustoz bo‘lib, kelajakda Verdini mashhur bo‘lishini bashorat qilgan edi.

Kutiladigan natijalar

O‘qituvchi:


O‘quvchilarni o‘zlashtirishga erishish, ularni faolligini oshirish, mavzuga doir bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish

O‘quvchi:

Yangi bilimlarni egallaydi, yakka holda guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadi, nutqi rivojlanadi, eslab qolish qobiliyati kuchayadi.

Musiqqa savodi

4/4 hissali o'lvhov



O'qituvchi: O'zbek xalq qo'shig'i "O'zbekiston qahramonlari" qo'shig'ini tahlil qilib kuylab beraman.

"O'zbekiston qahramonlari"

Payziqul Zokirov mus.

Anvar Tog'ayev she'ri.

Xalqim tarixida buyuk bir sana,
Ozod osmonida porlaydi quyosh.
Yurtim ulug'lari kelmoqda ana,
Men ular qoshida egadurman bosh.

Naqorat

Buloqday pokiza pok iymonlari,
Ozod O'zbekiston qahramonlari.

Biz vatan bag'rida bir tanu bir jon,
Vatanday yashaymiz erkin va ozod.
Har qadam chamanzor har qadam bo'ston,
Erk ila faxr etar shukuhli avlod.

Naqorat

Buloqday pokiza pok iymonlari,
Ozod O'zbekiston qahramonlari.

Uyga vazifa: J.Verdi hayoti va ijodini o'qib o'rganib kelish, 4/4 o'lvhoviga dirijiorlik qilish.

2.2. Internetdagi musiqa va san'at sohasi bo'yicha yaratilgan interaktiv xizmatlardan foydalanish

Zamonaviy kompyuterlarning qishloq maktablarigacha yetib borishi, ulardan ijobiy maqsadlarda foydalanish, dars jarayonlarida qo'llash lozim bo'lmoqda. Shu jumladan, musiqa darslarida ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi 3431-PF Farmonida ham Dasturni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari belgilangan bo'lib, unda "maktablarni zamonaviy darsliklar va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o'quv-metodik materiallari bilan ta'minlash"ga alohida e'tibor qaratiladi.

Biz quyida musiqa va san'at sohasi bo'yicha internet tarmog'ida yaratilgan interaktiv xizmatlar haqida to'xtalamiz. Masalan,

<http://www.uzarts.uz/> – O'zbek milliy san'ati sayti. Unda milliy san'atimiz (haykaltaroshlik, rassomchilik, me'morchilik, naqqoshlik, kulolchilik, raqqoslik, musiqa, teatr)ga oid ma'lumotlar, rasmlar mavjud. Saytdagi "**Kategoriya**" bo'limi orqali kerakli yo'nalish tanlansa, shu haqidagi ma'lumotlar paydo bo'ladi.





“Haykaltaroshlik” bandi tanlangach, yuqoridagi sahifa ochiladi. Unda haykaltaroshlikka oid rasmlar va ma’lumotlar paydo bo’ladi.




“Rassomchilik” bandi tanlangach, rassomchilik haqidagi kichik lavhalar va unda ma’lumotlar bo’ladi. Keraklisi bosilgach, bu haqida to’liq va katta sahifada ma’lumot paydo bo’ladi. Ushbu rasm va ma’lumotlarni ko‘chirib olish imkoniyati mavjud.

Xuddi shunday, “Me’morchilik”, “Naqqoshlik”, “Kulolchilik” bandalari tanlangach ham oldin kichik lavhalar va keyinchalik keraklisi tanlansa, boshqa sahifada kattaroq rasm hamda to‘liq ma’lumotlar quyidagidek, ochiladi.



“Ma’morchilik” sahifasi



“Naqqoshlik va o‘ymakorlik” sahifasi



“Kulolchilik” sahifasi



“**Raqqoslik**” bandida esa o‘zbek milliy raqs san’ati haqidagi ma’lumotlar rasmlari bilan mavjud. Shuningdek, “Musika” va “Teatr” bandlari tanlangach ham ma’lumotlar shunday paydo bo‘ladi.



<http://sharqtaronalari.uz/> – “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali sayti. Unda festival haqidagi barcha ma’lumotlarni “Festival haqida”, “Festival 2011”,

<http://www.classicmusic.uz> – O‘zbek mumtoz musiqa dunyosi sayti. Unda o‘zbek mumtoz musiqasi va qo‘shiqchiligi haqida ma’lumotlar, quyidagi **“Maqomlar”** (o‘zbek maqomlari haqida ma’lumotlar), **“Kutubxona”** (mumtoz qoshiq va maqomlar haqidagi kitoblar), **“Musiqiy cholg‘ular”** (milliy cholg‘ular haqida rasm va ma’lumotlar), **“Folklor”** (dostonlar va ulardan parchalar), **“Musiqa – mp3”** (o‘zbek mumtoz musiqalari va qoshiqlari) bo‘limlari mavjud. Kerakli kitoblarni yoki musiqalarni ko‘chirib olish uchun kerakli bo‘limlarga kirish va ularni ko‘chirib olish mumkin. Bular esa Interaktiv xizmatlar hisoblanadi.

WORLD OF UZBEK CLASSIC MUSIC
O'ZBEK :: ENGLISH

HOME
MAQOMS
LIBRARY
MUSIC INSTRUMENTS
FOLKLORE
MUSIC - mp3
ARTISTS LIST
CONTACT

Dilara Qodirova san'atimiz genomida porlagan yulduz edi. Yuksak va jarangdor ovoz, ovozidagi qib ehtiros ashiqlarga qizib bag'ishlar, bir eshitgan kish yana eshitgan dar, ammo eshitib to'ymasdi.
Dilaraning sa'fati qahllari tarzaga solti. Undan yuraklarda dard va arman sa haddi adosiga yetkazib iro etilgan mumtoz navolar qildi. "Ey sabo", "Muroja", "Qulbon o'lam", "Masuloy", "Samarqand ushahog'i", "Farg'onacha Shahnoz", "Fozul", "Gulzarim", "Bi kelt' hoting",... yana qay birni aytay?!. Umid va tasalli ulim, ba taronalar har bir o'zbek xonadonida jaranglab yashayveradi. Ular barobarda xonanda ham yashayveradi. Demak, Dilaraga o'lim yo'q.
Alloh uni g'arbi rahmat, shoyistayni jannat aylasin. Qunwayi nafosini farzandlarga ato etsin. Omiyn, Rabbul olamiyn!

KIM EDI?

Do'zlar, gulshan ero gulg' usha sandon kis edi?
Bini eman etgan o' shul bulbul, g' azabon kis edi?

Biladim ashi, nasangimkiz yo' farg' onak?
Ko'zlas joda, qsh, rufi panishon kis edi?

MAQOM HAQIDA
Ushbu bo'limdagi ma'lumotlar Ishaq Rajabovning "Maqom asoslari" nomli kitobidan olindi.

Maqom san'ati ko'pchilik Sharq xalqlari musiqa merosida mavjud bo'lib, milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan tufumli musiqiy majmua bo'lib, bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan tundi. Maqomlar keng ma'noda xalq musiqasi qamovidir. Chunki ularda, xususan Shehnaqomda o'zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos ush xususiyatlarni sado-ohanglar doira usulari, shehriyat bilan xalq ashula yo'llarining bog'lanish qoidalarga asoslangan qator jabhalar o'z to'laqonli ifodasini topgan.

Maqom nima? Maqom arabcha ajays, «o'rin», «makom», musiqa tushunchasida esa cholg'i asboblarda tovush hosil etiladigan joy, ya'ni eshida parda ma'nosini bildiradi. Maqom maxayyi pardadan boshlanadigan lad - tonalitetni, hamda ularga mos keladigan kuy va ashulala majmuisini ham ifodalaydi. "G'iyosul-kutub" qomusining muallifi G'iyosuddin o'lmish olimlarining mulohazalariga tayanib, maqom iborasini quyidagicha ta'riflaydi: "Maqom - parda surush go'yand" - «Maqom deb kuy va ashula'lar pardaiga aytiladi». Bu erda kuy va ashulala boshlanadigan parda hamda ule harakat etadigan lad tovushqatorlari hisobga olingan albatta.

Musiqaqa dor eski marhalalardan malumki, maqomlarning tarbiy - nazariy va amaliy tamonlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XV asrlarda yashab iqd etgan Kindiy, Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sina, Urmakiy, Sheroziy, Marog'iy, Jamiy va Husayniy kabi buyuk olimlarning risolalarida chiqur ilmiy asosda sharhlab berilgan. Shuni qayd etish lozimki musiqa nazariyas

BOSH SAHFA
MAQOMLAR
KUTUBXONA
MUSIQIY CHOLG'ULAR
FOLKLOR
MUSIQA - mp3
BOG'LANISH

MAQOM HAQIDA
Kuzim maqomlar.
Farg'ona-Toshkent maqomlar.

MAQOM HAQIDA
Ushbu bo'limdagi ma'lumotlar Ishaq Rajabovning "Maqom asoslari" nomli kitobidan olindi.

Maqom san'ati ko'pchilik Sharq xalqlari musiqa merosida mavjud bo'lib, milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan tufumli musiqiy majmua bo'lib, bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan tundi. Maqomlar keng ma'noda xalq musiqasi qamovidir. Chunki ularda, xususan Shehnaqomda o'zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos ush xususiyatlarni sado-ohanglar doira usulari, shehriyat bilan xalq ashula yo'llarining bog'lanish qoidalarga asoslangan qator jabhalar o'z to'laqonli ifodasini topgan.

Maqom nima? Maqom arabcha ajays, «o'rin», «makom», musiqa tushunchasida esa cholg'i asboblarda tovush hosil etiladigan joy, ya'ni eshida parda ma'nosini bildiradi. Maqom maxayyi pardadan boshlanadigan lad - tonalitetni, hamda ularga mos keladigan kuy va ashulala majmuisini ham ifodalaydi. "G'iyosul-kutub" qomusining muallifi G'iyosuddin o'lmish olimlarining mulohazalariga tayanib, maqom iborasini quyidagicha ta'riflaydi: "Maqom - parda surush go'yand" - «Maqom deb kuy va ashula'lar pardaiga aytiladi». Bu erda kuy va ashulala boshlanadigan parda hamda ule harakat etadigan lad tovushqatorlari hisobga olingan albatta.

Musiqaqa dor eski marhalalardan malumki, maqomlarning tarbiy - nazariy va amaliy tamonlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XV asrlarda yashab iqd etgan Kindiy, Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sina, Urmakiy, Sheroziy, Marog'iy, Jamiy va Husayniy kabi buyuk olimlarning risolalarida chiqur ilmiy asosda sharhlab berilgan. Shuni qayd etish lozimki musiqa nazariyas

2.3. Tajriba–sinov ishlari natijalari

Ushbu bitiruv malakaviy ishi yuzasidan 2011-2012 o‘quv yilida Jizzax shahridagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari musiqa darslarida olib borildi, ya’ni musiqa va san’at sohasi bo‘yicha yaratilgan interaktiv xizmatlar orqali musiqa darslarining mavzusi o‘rganildi.

Bu jarayonda 7-sinf o‘quvchilariga musiqa darslarida mavzularning o‘qitilishi internetdagi interaktiv xizmatlar orqali foydalanildi va quyidagi natijalar olindi.

Buning uchun 7- sinf o‘quvchilaridan tashkil topgan ikkita bilim darajasi teng bo‘lgan sinflar olindi, bular – 7-a va 7-b sinflar. 7-a sinf o‘quvchilari $N_1 = 28$ va 7-b sinf o‘quvchilari $N_2 = 31$ tani tashkil etdi. Ikkala sinfdan ham yozma ishlar, mavzular bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazildi.

Ularning natijalari uch ballik (“o‘rta”, “yaxshi”, “a’lo”) tizim asosida baholandi ($c=3$). Sinflarda o‘tkazilgan yozma ishlar va savol-javob natijalarini tahlil qilish uchun X_i – kvadrat kriteriysidan foydalanildi.

Ahamiyatlilik darajasi uchun $\alpha = 0,05$ qiymatni tanlab olindi. X_i – kvadrat taqsimot jadvalidan kriteriy statistikasining shu qiymatga mos kelgan kritik qiymati topildi:

$$X_{kr}^2 = 3,84 \quad (1)$$

Bunda har bir sinfdagi o‘quvchilar olgan ballariga (“o‘rta”, “yaxshi”, “a’lo”) qarab yana uchta guruhchalarga bo‘lindi. Bu guruhchalardagi o‘quvchilar sonini N_{ij} bilan belgilandi ($i = 1, 2; j = 1, 2, 3$). Bu yerda i – sinfnining nomeri (7-a va 7-b sinf), j – shu sinfdagi guruhchaning nomeri. Baholash natijalari quyidagicha bo‘ldi:

N_{ij}	N_{i1}	N_{i2}	N_{i3}
N_{1j}	15	8	5
N_{2j}	10	7	14

Bu jadvaldan foydalanib,

$$X^2 = \frac{1}{N_1 N_2} \sum_{j=1}^c \frac{(N_1 N_{2j} - N_2 N_{1j})^2}{N_{1j} + N_{2j}}$$

formulaga asosan kriteriy statistikasining kuzatilgan qiymati hisoblandi:

$$\begin{aligned} X_{kuz}^2 &= \frac{1}{N_1 N_2} \sum_{j=1}^3 \frac{(N_1 N_{2j} - N_2 N_{1j})^2}{N_{1j} + N_{2j}} = \\ &= \frac{1}{28 \cdot 31} \left(\frac{(28 \cdot 10 - 31 \cdot 15)^2}{15 + 10} + \frac{(28 \cdot 7 - 31 \cdot 8)^2}{8 + 7} + \frac{(28 \cdot 14 - 31 \cdot 5)^2}{5 + 14} \right) = \\ &= \frac{1}{868} \left(\frac{(280 - 465)^2}{25} + \frac{(196 - 248)^2}{15} + \frac{(392 - 155)^2}{19} \right) = \\ &= \frac{1}{868} \left(\frac{(-185)^2}{25} + \frac{(-52)^2}{15} + \frac{(237)^2}{19} \right) = \\ &= \frac{1}{868} \cdot \left(\frac{7225}{25} + \frac{2704}{15} + \frac{56169}{19} \right) = \\ &= \frac{1}{868} \cdot (289 + 180,3 + 2956,3) = \frac{3425,6}{868} = 3,95. \end{aligned}$$

Demak, $X_{kuz}^2 = 3,95$ ga teng ekan.

Bu qiymat kriteriy statistikasining $\alpha = 0,05$ ahamiyatlilik darajasidagi (1) kritik qiymatidan katta ($3,84 < 3,95$) bo'lgani uchun X_i – kvadrat kriteriysidan shu ahamiyatlilik darajasida tadqiqot ishi natijalarining samarali ekanligi, interaktiv xizmatlardan foydalanib dars o'tish ta'lim samaradorligini ta'minlashi, ya'ni tadqiqot ishida qabul qilingan ilmiy farazning haqiqiyliги kelib chiqadi.

XULOSA

Internet orqali turli ko‘rinishdagi xizmat turlari (interaktiv xizmatlar) ko‘rsatilmoqda. Internet orqali musiqa va badiiy san‘at bo‘yicha ma‘lumotlar olishda interaktivlik orqali foydalanuvchi turli manbalardan manfaat ko‘rsa, ya‘ni ma‘lumotlar ola olsa, bunda musiqa va san‘at sohasi bo‘yicha interaktiv xizmat ko‘rsatilgan hisoblanadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida internet tarmog‘idagi musiqa va san‘at sohasi bo‘yicha yaratilgan interaktiv xizmatlardan foydalanish va shu asosida darslar o‘tish uslubiyati ishlab chiqilgan. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan uslubiy tavsiyalar asosida musiqa darslarini kompyuter imkoniyatlaridan foydalanib maktabda dars o‘tganimizda va boshqa foydalanuvchilarni tahlil qilganimizda quyidagi xulosalarga keldik:

- interaktiv xizmatlardan foydalanishda o‘quvchilar va foydalanuvchilarda musiqaga oid ko‘proq ma‘lumot olish imkoniyati oshadi;
- musiqalarni jonli eshita olish, tasvirlar va animatsiyalar o‘quvchilarning tasavvurlarini kengaytirish uchun muhim rol o‘ynaydi;
- kerakli musiqalarni ko‘chirib olish imkoniyati yaratiladi;
- san‘at sohasiga oid turli rasmlarni ko‘rish va ma‘lumot olish natijasida o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalar shakllanadi;
- o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratildi.

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa va san‘at sohasi bo‘yicha elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni joriy etish musiqa va badiiy ta‘lim yo‘nalishidagi ta‘lim sifatini oshishiga imkoniyat yaratadi. Bu sohadagi elektron o‘quv adabiyotlarining internet tarmog‘iga joylashtirilishi esa keng ommaning foydalanishiga xizmat qiladi. Bu esa musiqiy va badiiy ta‘limda dasturlash tizimlari yordamida o‘qitishning, o‘quv jarayonining sifat va samaradorligini hamda mahsuldorligini yanada oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX – sessiyasida so‘zlagan nutqi, 1997 yil 29 avgust. T: Sharq, 1998. – B.4 – 19.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T: “Ma‘naviyat”, 2008. – 176 b.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T: Sharq, 1998. – B.20 – 29.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi “2004-2009 yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi 3431-PF Farmoni.
6. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi, 2010 yil 28 yanvar.
7. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 12 noyabrdagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi so‘zlagan ma‘ruzasi // www.press-service.uz
8. Bizning yo‘limiz – demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. Prezident Islom Karimovning 2011 yil 7 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ning 19 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasidan.
9. Barkamol avlod – mamlakatimizni rivojlantirishda hal qiluvchi kuch. Prezident Islom Karimovning Toshkentdagi Simpoziumlar saroyida 2012 yil 17 fevral kuni “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzuida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyadagi ma‘ruzasidan.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevraldagi PQ-805-son Qarori. “Yoshlar yili” Davlat dasturi to‘g‘risida.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 27 yanvardagi PQ-1271-son Qarori. “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi to‘g‘risida.
12. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T: Sharq, 1997 y.
13. Bitiruv malakaviy ishlariga qo‘yiladigan talablar. Oliy ta‘lim, I qism. Toshkent. 319 bet.
14. Haitov F.N., Shamsiyev A.Sh., Yusupov R.M., Temurov S.Y. Bitiruv malakaviy ishini yozish, rasmiylashtirish va himoya qilish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. Jizzax. 2008, 32 bet.
15. “Boshlang‘ich ta‘lim” ilmiy-uslubiy jurnali. 2007-2012 yillar chiqqan sonlari.
16. <http://www.uzarts.uz/> – O‘zbek milliy san’ati sayti
17. <http://sharqtaronalari.uz/> – “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali sayti
18. <http://www.classicmusic.uz> – O‘zbek mumtoz musiqa dunyosi sayti
19. <http://www.muz.uz/> - Musiqa javoni sayti
20. <http://www.sayyod.com/> - Musiqa va san’atkorlar haqida sayti